

“QOMUS AL-A’LOM”DA MARKAZIY OSIYO VA UNGA DOIR MAQOLALAR TAVSIFI

Mansurov Isroiljon G‘ofur o‘g‘li ¹

¹ Turan International University

Gumanitar fanlar va pedagogika

kafedrası o‘qituvchisi

isroilmansurov12@gmail.com

Tel: +998940661661

MAQOLA MA’LUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:14.11.2024

Revised: 15.11.2024

Accepted:16.11.2024

KALIT SO‘ZLAR:

Markaziy Osiyo,
O‘rta Osiyo, Orol
dengizi, hukmdor,
shahar, qal’a, shoir,
qabila, cho‘l.

Ushbu maqola “Qomus al-a’lom”dagi Markaziy Osiyoga oid maqolalarga umumiy tavsif beradi. Shu bilan birga maqolada Markaziy Osiyo atamasiga atroflicha izoh berilgan. Ensiklopediyada maqolalar kelish tartibi va maqolalarni klassifikatsiyasiga ham urg‘u berilgan.

KIRISH. Markaziy Osiyo subregioniga tavsif berganda, bu geografik tushunchaning “O‘rta Osiyo” atamasi bilan bog‘liqligini, ularning o‘zaro farqini izohlash o‘rinli. O‘rta Osiyo – Yevrosiyo materigining 14 ta tabiiy geografik o‘lkalalaridan biri bo‘lib, g‘arbda Kaspiy dengizi, sharqda Tyanshan tog‘lari, shimolda Qozog‘iston past tog‘larining etaklari, janubda Hindukush va Turkman-Xuroson tog‘lari bilan chegaralangan, asosan Orol va Balxash ko‘llarining berk havzalariga to‘g‘ri keladi. Demak, O‘rta Osiyo o‘lkasi tabiiy geografik xususiyati va chegaralari asosida ajratiladigan hududiy birlik hisoblanadi. O‘rta Osiyoning tabiiy chegaralari doirasida 4 ta mamlakat, ya’ni O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston butunligicha joylashgan, shuningdek, Qozog‘iston Respublikasining markaziy va janubi-sharqiy, Afg‘oniston va Eronning shimoliy, Xitoyning esa chekka shimoli-g‘arbiy qismi ham O‘rta Osiyo hududiga to‘g‘ri keladi. Markaziy Osiyo

siyosiy-geografik subregioni esa ayni davlat chegaralari bo'yicha ajratiladigan hududiy birlik hisoblanadi⁹⁷.

Tabiiy geografiyada ham "Markaziy Osiyo" tushunchasi o'ziga xos mazmun-mohiyat anglatgan holda qo'llaniladi. Bunda O'rta Osiyodan sharqda joylashgan, Tyanshan va Jung'oriya Olotovi tog'larining sharqiy yonbag'irlaridan Buyuk Xitoy tekisligining g'arbiy chegaralarigacha davom etgan tog'li va cho'lli landshaftlardan iborat hududni egallagan Yevrosiyo materigining tabiiy geografik o'lkalaridan biri Markaziy Osiyo deb ataladi. Siyosiy-geografik jihatdan qaraganda, Markaziy Osiyo tabiiy geografik o'lkasi Xitoy va Mongoliya davlatlari hududida joylashgan bo'lib, Sharqiy Osiyo subregioniga mos keladi.

Markaziy Osiyo tarixi hududning iqlimi va geografiyasi bilan belgilanadi. Mintaqa iqlimining quruqligi ziroatchilikni qiyinlashtirgan bo'lsa, dengizlardan uzoqda joylashish mintaqaning savdo aloqalarini qiyinlashtirdi. Shu sababdan ham hududda yirik shaharlar soni ham bo'lib, hudud ming yillar davomida dasht ko'chmanchi qabilalari hukmi ostida bo'lgan.

Markaziy Osiyodagi ko'chmanchi qabilalar va o'troq xalqlar orasidagi munosabatlar uzoq vaqt davomida dushmanona tusga ega bo'lgan. Ko'chmanchi turmush tarzi harbiylar uchun o'ta mos bo'lib, ichki uyushqoqlikdan mosuvo bo'lganini hisobga olmasa, ko'chmanchi dashtliklar uzoq davr mobaynida dunyodagi eng qudratli harbiy kuchni tashkil qilishgan. Ular orasidagi ichki uyushqoqlikka ba'zan erishilgan bo'lsa, bu ham Markaziy Osiyodan o'tuvchi Buyuk Ipak yo'li tufayli edi. Tarix davomida ba'zan buyuk yetakchilar, yoki tarixiy shart-sharoit bir necha qabilalarning yagona kuchga birlashishiga sabab bo'lib, keyin ular deyarli to'xtatib bo'lmas kuchga aylanar edi.

ASOSIY QISM

Ensiklopediyada Markaziy Osiyo uchun alohida maqola yozilib, unda Markaziy Osiyoning arabcha nomi *آسياى وسطى* gramatik tahlil qilinadi. Maraziy Osiyo mintaqasi Osiyo qit'asining markazida joylashgan bo'lib, janubdan Eron va Hindiston, janubi-sharqida Xitoy, shimoli-sharqida Rossiyaning Amur o'lkasi, Shimolda Sibir, G'arbda Kaspiy dengizi bilan o'ralgan. Bu juda katta hudud bo'lib, dengizga juda uzoq hisoblanadi⁹⁸.

Markaziy Osiyoni qadimdan forslar va hindlar Turon mintaqasi deb nomlab kelishgan, shu bilan birga bu hududni umumiy Turkiston deb ham ataladi. Hudud 28 ° shimoliy kenglikdan 55 ° shimoliy kenglikgacha, 50 ° sharqiy uzunlik 132 ° sharqiy uzunlikgacha

⁹⁷ <https://geografiya.uz/11257-markaziy-osiyo-mamlakatlari.html> (02.05.2023)

⁹⁸ Şemseddin Sami. Kâmûsu'l-alam. Istanbul: Mihran, 1889. I C. – B. 203.

cho'zilgan hududni qamrab oladi. Shimoldan janubga qadar eng katta masofa 2200 kilometr, sharqdan g'arbga qadar eng uzun uzunlik 6200 kilometrni tashkil etadi. Hudud shu qadar xilma-xillikka egaki, bu yerda Orol dengizi, Amudaryo va Sirdayo kabi yirik daryolar, baland tog' tizmalaridan tortib, Kaspiy dengizidan bir necha yuz metr pastlikda joylashgan. Mintaqaning marakaziy qismida esa Qizilqum cho'llari joylashgan⁹⁹.

Markaziy Osiyo juda qadimiy tarixga ega bo'lib, bu yerda asosan turkiylar istiqomat qilishadi. Shu bilan birga forsiylar ham ko'pchilikni tashkil etib, janubiy taraflarda ko'pchilikni tashkil etishadi. Markazda esa o'zbeklar, janubi-g'arbda turkmanlar, g'arbda qoraqalpoqlar, shimolda qozoqlar, sharqda esa asosan qirg'izlar istiqomat qilishadi. Mahalliy xalqlardan o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoqlar oltoy tillar oilasining turkiy guruhiga mansub bo'lsa, tojiklar va ularga qardosh Pomirdagi kichik xalqlar (shug'onlar, vaxanlar, ishkashimlar va boshqalar) hind-yevropa tillar oilasining eroniy guruhi tarkibiga kiradi. Aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanib, qadimdan muhim savdo karvonlari shu hududdan o'tgan. E'tiborli tarafi shundaki, bu hududga juda ko'p bosqinlar bo'lib, forslar, yunonlar, mo'g'ullar va XIX asrda ruslar bosqini kuzatilgan. Aholisi ham shunga ko'ra ko'p millatli hisoblanadi. Aholisi musulmon bo'lib, Islom diniga e'tiqod diniga e'tiqod qiladi.

Hududda joylashgan eng katta suv manbasi hisoblangan Orol dengizi haqida ham atroflicha ma'lumot beriladi. Islom geografiyasida geografik jihatdan (Bahr-i Xorazm) va (Bahr-i Jurjan) nomi bilan mashhur bo'lgan yirik ko'l sifatida qayd etilgan. Orol dengizi Markaziy Osiyoning g'arbiy qismida bo'lib, Xazar (Kaspiy dengizi) va Baykaldan keyin, Amerika bundan mustasno bo'lsa-da, u dunyodagi eng katta ko'ldir. 43° 30' va 46° 59' shimoliy kenglik va 56° va 59° 30' sharqiy uzunlik orasida joylashgan bo'lib, u bilan Bahri Xazar (Kaspiy) orasidagi quruqlikning eng tor qismi 26 kilometrdir. Uning janubdan shimolga eng uzoq uzunligi 350 kilometr, eng uzun kengligi esa 280 kilometr. G'arbiy sohil tarafdin tekis bo'lsada, boshqa uch tarafdin juda notekisdir. Shimolda qirg'iz sahro qabilalari bo'lib, sharq va g'arb taraflarda qoraqalpoq qavmlarining yeri, janub tarafida esa Xiva xonligidan iboratdir. Ya'ni har tarafdin turklar yeri bo'lib, Rossiya xalqining eski mamlakatlari bilan o'ralgandir¹⁰⁰.

Sohillari suvsiz va cho'l bir hudud unumsiz yerlardan iborat bo'lib, shimol tarafida 70 metrdan 100 metrgacha balandlik bo'lgan bir baland pasttekislik davom etadi. Lekin

⁹⁹ Şemseddin Sami. Kâmûsu'l-alam. Istanbul: Mihran, 1889. I C. – B. 203.

¹⁰⁰ Şemseddin Sami. Kâmûsu'l-alam. Istanbul: Mihran, 1889. I C. – B. 79.

tuprog'i yopishqoq loydan iborat bo'lib, imoratga yaroqli emasdir va asta-sekin shimolga qarab harakat qilsa ham, janub yo'nalishida to'satdan to'xtab, tik pastlikni hosil qiladi. G'arbiy tomonda ham o'sha balandlikda joylashgan (Ustyurt) pasttekisligi davom etadi. Janub tomoni butunlay tekis va past bo'lib, Jayhun (Amudaryo) tushirgan loydan iboratdir. Sharqiy tomoni qumli tekislikdan iborat bo'lib, yigirma besh metr balandlikda bir qancha qumtepalar bor. Sohilning aksariyat qismlari va ko'lining qirg'oqqa tutashgan ba'zi orollari o'rmon bilan qoplangan. Sohil atrofida bo'lgan ba'zi ko'llarning ko'p suvi issiq va juda sho'r bo'lgani kabi, hatto o'sha hududlarda qazilgan quduqlardan chiqayotgan suv ham xuddi shundaydir.

Bu ko'lga ikkita katta daryo quyilar, ulardan biri-bir vaqtlar Jayhun va hozirda Amudaryo deb tanilgan bo'lib, janub tomonida, ikkinchisi bir paytlar Sayhun va hozirda Sirdaryo nomi bilan tanilgan bo'lib, shimol tarafidan quyilar. Daryolarning quyilish va quyilish atroflarida paydo bo'lgan kichik ko'llarni olti-yetti metr balandlikdagi qamishlar o'rab olgan bo'lib, katta chivinlari ham juda ko'pdir. Sohillarda suv qushlarining turli xillari, ichki taraflarda o'rgimchak va chayonlarning zaharli turlari, o'rmonlarida yovvoyi to'ng'izlar ko'p uchraydi, ba'zida, hatto yo'lbars izlari ham ko'rinadi. Ko'l atrofidagi joylarda ob-havo qishda juda sovuq bo'lib, harorat 0 °C dan -20 °C ga tushadi; va hatto yozda ham havo juda issiq va quruq bo'lib, biroq shimoldan esuvchi shamollar daryolar oqimidagi botqoqliklardagi bug'lanishlarni tarqatib yuboradi, havoga bir oz namlik qo'shib, boshqa joylarda havoni buzadigan bug'lanishlar u yerda juda foydali bo'lar. Uning atmosferasi yoqimli bo'lmasa-da, sog'liq uchun zararli emas. Shimol shamoli ba'zan shiddatli esganligi sababli, ko'ldagi kemalar uchun juda xavfli bo'ron paydo bo'ladi¹⁰¹.

Orol dengizining suvlari unchalik chuqur emas, eng chuqur qismlari esa 70 metrdan oshmaydi. Jayhun (Amudaryo) va Sayhun (Sirdaryo) quyadigan chuchuk suvning ko'pligi tufayli uning suvi dengiz suvi kabi sho'r emas. Bir asrdan beri ko'lining suvi kamayib, nisabatan ko'proq sayoz bo'lgan sharq taraf sohillari quruqlik bo'lib bormoqda va yana ba'zi orollar paydo bo'lmoqda. Bu orqali esa, yerlik aholi bu ko'lni Orollar dengizi deb atarlar, yevropaliklar buni tahrirlab Orol deb nomlashgandir. Shimoliy tomonda ko'rfaz hosil bo'lib, u Kichik dengiz deb ataladi va qishda butunlay muzlaydi, boshqa tomonlarining faqat sohillari muzlaydi. Orol ko'lining yuzasi dengiz sathidan taxminan 12 metr va Kaspiy dengizi yuzasidan 38 metr balandlikda joylashgan.

¹⁰¹ Şemseddin Sami. Kâmûsu'l-alam. Istanbul: Mihran, 1889. I C. – B. 80.

Qadimgi yunon va rim geografiyasining bu ko'l haqidagi ma'lumotlari juda yuzaki va noaniq bo'lib, buni fanga olib kirgan o'rta asrlardagi musulmon geograflaridir. Keyinchalik rossiyalik fan arboblari bu ko'l ahvoli haqida ilmiy izlanishlar olib borish orqali mukammal xaritani ishlashdi. Bularning ichida eng mukammali 1851-yilda Xanikov tomonidan tayyorlangan xarita bo'lib, u hatto tilga olingan joylarning sharoitlari haqida ba'zi sirlarni ham yozgan. Xarita fransuz tiliga tarjima qilingan.

Bundan tashqari ensiklopediyada Amudaryo va Sirdaryo haqida ham ma'lumotlar beriladi. Amudaryo ensiklopediyada Amou-Daria tarzida kelgan. Bu nom hozirgi mahalliy aholi hamda Yevropa tillarida muomalada bo'lmoqda. Qadimgi yunon kitoblarida Oks va musulmonlarda Jayhun nomi bilan tanilgandir.

Shamsiddin Somiy "Qomus al-a'lomda" Amudaryoning nomlanishdagi ba'zi chalkashliklar haqida quyidagicha fikr bildiradi: "Bizning hujjatlarimiz mualliflari va tarjimonlari Amudaryo nomini Yevropa tillarida ko'rib, Ummu daryo (Daryo onasi) deb xato ifoda etib, shunday bir nomni xatolik bilan tarjima etishda yanglishdilarki bu katta xatodir"¹⁰².

Sirdaryo daryosining qadimgi nomi yunonlarda Yaksart va XIX asr aholi orasida nomi Sirdaryo nomi bilan atalgan. Musulmonlar tomonidan Sayhun deb atalgan¹⁰³.

Bundan tashqari Markaziy Osiyodagi katta cho'llardan biri Qizilqum cho'li haqida ham ma'lumotlar berilgan. Qizilqum Markaziy Osiyoda Rossiyaga tobe bo'lgan Turkistonda, Amudaryo va Sirdaryo vodiylarida va Qoratog' etaklari va Orol dengizi o'rtasida joylashgan cho'l bo'lib, sharqdan g'arbga uzunligi taxminan 600 kilometr, kengligi esa 350 kilometrdir. Bir paytlar dengiz tubida bo'lganligini cho'l hududidan topilgan dengiz hayvonlarining suyaklaridan bilish mumkin. U qizil qum bilan qoplangan va bir nechta noyob butalar bo'lsa-da, ko'p joylarda ikki yoki uch metr qazganda ichimlik suvi chiqadi.

Turklar Turkistonni, ya'ni Markaziy Osiyoni o'zlarining boshlang'ich vatani deb hisoblaydilar va "otayurt" deb ataydilar. Shuning uchun turk olimlari Usmonli imperiyasi davridan boshlab bu mintaqaning tarixiga katta qiziqish bildirib kelganlar. Turkiyada eng yaxshi va chuqur o'rganilgan davr Saljuqiylar davri hisoblanadi, chunki ular Usmonli turklarining ajdodlari bo'lib, turklarning Yaqin Sharqdagi davlatchiligiga asos solganlar.

Tarixchi olim Nasimxon Rahmonga ko'ra, XX asrning boshlariga qadar mintaqalar tarixining umumiyligi, birligi haqida tasavvur bo'lgan, mintaqalar tarixi yaxlit qabul qilingan.

¹⁰² Şemseddin Sami. Kâmûsu'l-alam. Istanbul: Mihran, 1889. I C. – B. 370.

¹⁰³ Şemseddin Sami. Kâmûsu'l-alam. Istanbul: Mihran, 1891. IV C. – B. 2751.

“Rashid ad-Din, Mirzo Ulug‘bek, Navoiy, Abdulg‘ozi tarixiy asarlarida mintqa tarixi izchillik bilan rivojlanib kelgan, odamlar bu tarixni bilgan, o‘qigan, an‘ana davom etib kelgan. Bu an‘ana izchil davom etishi yigirmanchi asr boshlarigacha umumiy tarix tushunchasini shakllantirib kelgan. Sun‘iy chegaralash siyosati boshlangach, sovet davrining dastlabki siyosatidan umumiy turkiy tarix, umumiy vatan tushunchlari yo‘qotila boshlanadi,” - deydi Nasimxon Rahmon. Bu esa mintqa tarixi umumiy holda o‘rganish kerakligini yana bir bor takrorlaydi.

Ensiklopediyada Markaziy Osiyo tarixi va geografiyasiga oid ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan jami 460 ta maqola mavjud. Bu maqolalarda 105 ta davlat arbobi, 115 ta olim, 9 ta siyosiy tashkilot, 13 ta qabila, 159 ta aholi punkti, 7 ta tog‘, 13 ta viloyat, 5 ta qal‘a, 6 ta ko‘l, 17 ta daryo, 3 ta cho‘l va boshqalar

“Qomus al-a‘lom”ning birinchi jildida 77 ta maqola, ikkinchi jildida 72 ta maqola, uchinchi jildida 88 ta maqola, to‘rtinchi jildida 100 ta maqola, beshinchi jildida 74 ta maqola, oltinchi jildida 46 ta Markaziy Osiyoga doir maqolalar mavjud. . Ba‘zi o‘rinlarda ma‘lumotlar keng qamrovli bo‘lib, ba‘zan esa tafsilotlarga berilmasdan faqat yuzaki ma‘lumotlar berilgan.

E‘tiborli tarafi Markaziy Osiyo haqidagi ma‘lumotlarning aksariyati olimlar hamda davlat arboblari o‘ld oid bo‘lib, bu Markaziy Osiyoda ilm-fan rivojining markazi bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari hududda kuchli davlat arboblari, markazlashgan davlat birlashmalari shakllanganligiga ham dalolat qiladi.

XULOSA

“Qomus al-a‘lom”dagi muhim jihatlardan biri ensiklopediyaga muallifning shaxsiy qarashlarining ham qo‘shilganligidir. Bu esa, tadqiqotchi hamda ilm egalarining Shamsiddin Somiyning bildirgan fikrlari asosida maqoladagi holat yoki vaziyatga oid tushunchalarini jonlantirishga turtki bo‘ladi.

Ensiklopediyada nafaqat eski nomlar, balki yangi nomlar uchun ham alohida maqolalar shakllantirilgan bo‘lib, qisqa sharhi ham berilgan. Bundan tashqari ba‘zi nomlarga gramatik tahlillar qilib berilgan.

Markaziy Osiyoga oid maqolaning bo‘lishi, uning tarixi haqida qisqa to‘xtalish Shamsiddin Somiyni o‘z davrida geografiya ilmlaridan yetarli darajada ilmi bor ekanligini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyo haqidagi besh yuzga yaqin maqolalarning mavjudligi Markaziy Osiyoning ana shu davrda ham muhim markaz ekanligini, bu hudud haqida yetarli ma‘lumotlar shakllanganligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Şemseddin Sami. Kâmûsu'l-alam. Istanbul: Mihran, 1889-98. VI C.
2. Agah S.L. Şemsittin Sami. Ankara: Türk dil kurumu, 1969. 210 s
3. Şemseddin Sami. Kamûs-i türkî. Istanbul: Yeditepe, 2021. 1590 s
4. Şemseddin Sami. Orhun abideleri. Ankara: Akçağ, 2012. 256 s
5. Şemseddin Sami. Taşşuk-u Tal'at ve Fitnat. Istanbul: Bordi siyah klasik, 2014. 198 s
6. Şemseddin Sami. Usûl-i tenkit ve tertip. Ankara: Akçağ, 2017. 254 s
7. geografiya.uz